



**FARG'ONA VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**FARG'ONA VILOYATIDA
QURILISH ISHLARI**

2022- yil yanvar-iyun

2022- yil yanvar-iyun oylari uchun Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-iyun
oylariga,

Farg'ona viloyatida jami

3 950,6 mlrd. so'mlik qurilish ishlari
bajarilib, o'sish sur'ati 2021- yilning
yanvar- iyun oylariga nisbatan 109,0 %ni
tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish
tashkilotlari, kichik korxona
va mikrofirmalar hamda norasmiy
sektorlarda amalga oshirilgan ishlar
tarkibi bo'yicha shakllanadi.


11,0 Yirik qurilish tashkilotlari

69,3 Kichik korxona
va mikrofirmalar


19,7 Norasmiy
sektor

Amalga oshirilgan qurilish ishlari
mulkchilik shakli, davlat va nodavlat
bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi
bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi
bu — o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish
ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy
ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish
ishlari natijasidir.



**Qurilish sohasi mamlakatimiz
milliy iqtisodiyotining barqaror
o‘sishiga o‘zining munosib hissasini
qo‘sib kelayotgan sohalardan
hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat
ko‘rsatayotgan korxona va
tashkilotlarning soni 2021- yilning
mos davri bilan solishtirganda o‘sish
sur’ati 109,1 % oshgan (313 birlik).**



Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo‘nalishlari kesimida qaraganda:

Binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 55,3 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 108,8 foizga oshgan (169 birlik);

Fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 12,6 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 127,1 foizga oshgan (101 birlik);


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 32,1 foiz ulushni va 103,7 foiz o‘sish sur’atini tashkil etdi (43 birlik).



Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar, birlik

	holatiga:		o‘tgan yilga nisbatan, %da
	01.07.2021- y.	01.07.2022- y.	
Farg‘ona viloyati	3458	3771	109,1
Farg‘ona sh.	931	1027	110,3
Qo‘qon sh.	342	353	103,2
Quvasoy sh.	122	129	105,7
Marg‘ilon sh.	343	334	97,4
Oltiariq	116	138	119,0
Qo‘shtepa	106	112	105,7
Bag‘dod	152	177	116,4
Buvayda	131	137	104,6
Beshariq	93	98	105,4
Quva	148	155	104,7
Uchko‘prik	191	198	103,7
Rishton	82	98	119,5
So‘x	66	87	131,8
Toshloq	141	146	103,5
O‘zbekiston	85	102	120,0
Farg‘ona	109	142	130,3
Dang‘ara	135	142	105,2
Furqat	79	87	110,1
Yozyovon	86	109	126,7

2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra Farg'ona viloyatida faoliyat
ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini ulushi, %da



Joriy yilning yanvar-iyun oylariga, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 435,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 140,2 %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan 2,6 % punktga ko'payib, 11,0 %ni tashkil etdi.

**2022- yil yanvar-iyun
oylariga yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan
qurilish ishlari**



Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʼp ulushi Margʼilon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 41,0 % yoki 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 153,0 % oʼsish surʼati), Fargʼona shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 26,0 % yoki oʼtgan yilning mos davriga nisbatan 141,1 % oʼsish surʼati) va Quvasoy shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 6,0 % yoki oʼtgan yilning mos davriga nisbatan 153,4 % oʼsish surʼati)ga toʼgʼri keldi.



Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2022- yilning yanvar-iyun oylariga kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 69,3 %i to‘g‘ri kelib, 2021- yilning yanvar-iyun oylariga ko‘rsatkichiga nisbatan 0,3 foizga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan 106,3 %ni tashkil etgan holda 2 738,2 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, %da

69,6
2021- yil
yanvar-iyun

69,3
2022- yil
yanvar-iyun



Ma’lumot uchun: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Farg‘ona shahri (941,4 mlrd. so‘m yoki umumiylajmga nisbatan 125,7 %), Marg‘ilon shahri (388,2 mlrd. so‘m yoki 133,0 %), Qo‘qon shahri (222,7 mlrd. so‘m yoki 121,2 %) va Qo‘shtepa tumani (202,0 mlrd. so‘m yoki 204,0 %) to‘g‘ri keldi.


Qurilish ishlarining umumiyl hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 19,7 %ni tashkil etdi yoki 776,7 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 105,6 %ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 206,2 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 3 744,5 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 5,2 % va 94,8 %ni tashkil etdi.



**2022- yil yanvar-iyun oylaridagi
Farg'ona viloyatida qurilish ishlari**

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi


2022- yil yanvar-iyun oylarida

Bajarilgan qurilish ishlaringin katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringin 70,9 %i yoki 2 801,8 mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 355,5 mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 12,7 %ni tashkil etdi.



Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 707,0 mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 25,2 %ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish ishlari


2022- yil yanvar-iyun oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya va qayta qurollantirish (mlrd. so'm)
Farg'ona viloyati	3950,6	109,0	2801,8
Farg'ona sh.	1165,8	117,8	753,0
Qo'qon sh.	308,3	115,5	212,2
Quvasoy sh.	105,7	110,8	77,5
Marg'ilon sh.	586,1	125,3	452,1
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	140,7	110,1	91,0
Qo'shstepta	266,8	162,3	130,6
Bag'dod	187,9	95,6	107,2
Buvayda	96,0	96,7	94,2
Beshariq	96,4	134,1	48,8
Quva	91,4	77,4	91,4
Uchko'prik	86,3	78,5	86,3
Rishton	64,6	102,9	47,1
So'x	84,8	76,5	68,8
Toshloq	143,1	122,1	119,2
O'zbekiston	101,5	105,4	96,5
Farg'ona	93,2	76,1	68,1
Dang'ara	135,3	72,1	95,3
Furqat	89,0	77,1	59,9
Yozyovon	107,7	105,4	102,6

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 10,0 %ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 2,8 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,6 % punktga kamayib, 63,9 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2021- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 2,2 % punktga kamayib, 26,1 %ni tashkil etdi.

Ulushi, %da

Yirik qurilish
tashkilotlari

Kichik korxona
va mikrofirmalar

Norasmiy
sektor



2021- yil
yanvar-iyun

2022- yil
yanvar-iyun


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 15,0 %ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 4,3 % punktga kamaydi.


Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 83,8 % (3,5 % punktga ko'paydi) hamda norasmiy sektoring ulushi 1,2 %ni tashkil etdi (0,8 % punktga ko'paydi).




Ulushi, %da



Yirik qurilish tashkilotlari



2021- yil yanvar-iyun




Norasmiy sektor

2022- yil yanvar-iyun


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 0,5 % punktga ko'paydi va 10,7 %ni tashkil etdi. Qolgan 89,3 %i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 0,5 % punktga kamaydi.



**2022- yil yanvar-iyun oylaridagi
Farg'on viloyatida qurilish ishlari**

Qurilish ishlari hajmi yuqori shahar va tumanlar



Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Tel.: 73 241-98-42